



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV
VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION RIVOJLANISH
VAZIRLIGI

“БАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИ ВА ЁШЛАР ТАРБИЯСИДА АЛИШЕР НАВОИЙ МЕРОСИНING АҲАМИЯТИ”

мавзусидаги республика онлайн

илмий-амалий анжумани

МАТЕРИАЛЛАРИ



*Alisher
Navoiy*

580

5 февраль 2021 йил
Бухоро



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА ЎРТА
МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**БАШАРИЯТ МАЪНАВИЙ
ЮКСАЛИШИ ВА ЁШЛАР
ТАРБИЯСИДА АЛИШЕР НАВОИЙ
МЕРОСИНИНГ АҲАМИЯТИ**

мавзуидаги республика онлайн илмий-амалий конференция

МАТЕРИАЛЛАРИ

2021 йил 5 февраль. Бухоро

**ABDURAHMON TAMKIN VA U YASHAGAN DAVR IJODKORLARI
IJODIGA ALISHER NAVOIY ASARLARINING TA'SIRI**

M.Q.Choriyeva,
mustaqil izlanuvchi (BuxDU)

XVI –XVIII asrlarda epik janrlarning mavqeyi birinchi o`ringa o`tgan bo`lsa, bu XIX-XX asr boshlariga kelib, g`azal yana poeziyaning yetakchi janriga aylandi va o`z imkoniyatlarini keng namoyish qila boshladi.

Bu davr gʻazallarini mohiyat jihatidan ikkiga boʻlish mumkin: 1) aksar gʻazallarda shu janr tarixidagi barqaror anʼanalarning sezilarli izlari koʻzga tashlanib tursa; 2) bir qator gʻazallar real sharoit bilan bogʻlangan kechinmalarning aniq ifodasi sifatida yuzaga kelgan.

Chunonchi, ishq va u bilan bogʻliq kechinmalar tasviri, shuningdek, oʻz ahvolidan shikoyat, jamiyat nosozliklaridan norozilik, oliyjanob xislatlarni ulugʻlash bu davr gʻazallarining asosiy mavzusini tashkil etadi. Xullas, gʻazalchilikda umumiy mavzular bilan bir qatorda, ijodkorning shaxsiy taassurotlari va kechinmalari bilan aloqador boʻlgan aniq sheʼrlar ham anchagina paydo boʻldi. Shuningdek, bu davr gʻazallari orasida Alisher Navoiy ijodiyotida taraqqiy etgan hodisa – maʼlum syujetga ega boʻlgan sheʼrlar ham uchraydi. Poetik tasvirga, bir tomondan, anʼananing (tojikcha sheʼrlarda Hofiz, Bedil, turkiy sheʼrlarda Navoiy va Fuzuliy kabi klassiklarning) taʼsiri katta ekanligi sezilib tursa, ikkinchi tomondan, har bir ijodkorning maʼlum darajada originallikka intilishini va buning ayrim samaralari koʻzga tashlanadi. Bu davrda Buxorodagi oʻzbek-tojik gʻazalchiligining umumiy holati Mujrim, Shavqiy, Shukuriy, Vola, Joniy, Savdo, Tamkin, Xumuliy, Shohin, Muztarib, Bebok, Hayrat, Ayniy, Somiylar kabi zullisonayin shoirlarning ijodiy faoliyati bilan bogʻlangan.

XIX asr oxirlariga kelib Buxoro adabiy muhitida masnaviy ham gʻazal, muxammas, qitʼa singari asosiy poetik janrlardan biriga aylandi. Bu davrda masnaviyning ikki xil koʻrinishi- doston shaklidagi yirik turi hamda syujet va obrazlardan xoli boʻlgan namunalari yaratildi.

Humuliyning “Shoh va Gado”, “Shayx Musaxon Dahbediynning tarjimai holi”, Xiromiyning “Chor davesht”, “Toʻtinoma”, “Raʼno va Zebo” asarlari yirik masnaviy doston namunalari hisoblanadi. Bu janrdan muhim siyosiy-ijtimoiy hamda taʼlimiy qarashlarni badiiy ravishda ifoda etishda anʼana syujetlardan mahorat bilan foydalanilgan.

XIX asrning oxiri XX asr boshlarida ikki tilda asar yozgan shoirlar ijodiga Bedil, Hofiz bilan bir qatorda, Navoiy va Fuzuliy anʼanalarining taʼsiri nihoyatda kuchli boʻlgan.

Zullisonayin shoirlar uchun fors-tojik va turkiy shoirlardan Hofiz, Jomiy, Bedil, Navoiy, Fuzuliy, Muqumiy merosi katta mahorat namunasi rolini oʻynagan boʻlsa ham, biroq har bir ijodkorning ulardan ayrimlariga alohida munosabatda boʻlib, unga koʻproq ergashganlari koʻzga yorqin tashlanib turadi.

Masalan, Abdulqodirxoʻja Savdoning tojik tilidagi ijodida koʻproq Bedilning taʼsiri seziladi. Biroq Savdo ijodining oʻziga xosligi shundaki, u Bedilning murakkab til uslubi taʼsiriga berilmay, sodda, xalqqa tushunarli shaklda yozish uslubini rivojlantirdi. Masalan, u Bedilning:

Biyo ey gardi jannat, xirmoni husn,

Ba peshi mo bialfshon, domani husn.

(Kel, ey jannat g`ubori, tengsiz go`zallik, qarshimizda silki husn etagin), - g`azaliga quyidagi nazirani bog`laydi:

Biyo ey, jannat, xirmoni pul,

Ba peshi mo bialfshon domani pul.

(Kel, ey, jannat(huri)pul xirmoni;

Bizning oldimizga etagingni qoq, to`k pul xirmonini)

Shuningdek, Savdo dunyoqarashi va uslubiga o`zbek klassik shoiri shoir Boborahim Mashrab ijodi ham kuchli ta`sir o`tkazgan. Savdo bir she`rida:

“Qalandar Mashrabam, boboi rindon ast ustodam” (Qalandar Mashrabman, rindlar bobosi ustozim), - deydi. Shoir tojik tilida yozgan she`rlarida o`zbek xalq maqollari va so`zlaridan ustalik bilan foydalanadi.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashab ijod etgan zullisonayn shoir va tarixchi Mirzo Abdulazim Somiyning Navoiy, Fuzuliy an`analarini davom ettirib yozgan o`zbekcha taxmis va naziralari Buxoro shoirlari bu klassiklarning asarlaridan yaxshi xabardor bo`lganlarini, ularni o`z ustozlari deb hisoblaganliklarini ko`rsatadi. Navoiyning:

Vahki mug`bacha har dam chekibon bodai nob,

Qo`zg`alib arbadasidan bu ko`hna dayri xarob, -

matla`si bilan boshlanadigan g`azaliga Somiy o`n bir bandlik muxammas bog`laydi. Birinchi bandi:

Ishq vodisig`a men xastai zaif ma`ob,

Jismi zorimg`a junun shiddatidin turli azob,

Nogoh ul sho`x chiqib zulfi siyohini tarob,

Vahki mug`bacha har dam chekibon bodai nob,

Qo`zg`alib arbadasidan bu ko`hna dayri xarob.

Fuzuliyning “Ramazon oldi chekib shohidi may pardaya ro`” misrasi bilan boshlanuvchi g`azaliga Somiy bog`lagan sakkiz bandlik muxammasi mazmun va shakl jihatidan an`anaviy dunyoviy lirikaning yaxshi namunalaridan biridir:

Gardishi dahri balo toshini yog`dirdi qamu,

Bodai shodlig`i etdi etdi falak zoli og`u,

O`tti sha`bonu kelib boshimiza yuz qayg`u,

Ramazon o`ldi chekib shohidi may pardaya ro`y,

May uchun rang dutub ochdi gesu...

Somiy xalq ashulalariga yaqin she`rlar ham yozgan:

Ko`chadan o`tib borodur Layli jononim mani,

Go`yiyo tandin borodur notavon jonim mani.

Shuningdek, Somiy ham boshqa Buxorolik zullisonayin shoirlardek fors-tojik tilida yozgan she`rlariga o`zbekcha so`zlarni qo`shadi. Bu adabiy tilni bilmaslikdan

emas, atayin she'rni xalqning jonli til va talaffuziga yaqinlashtirish maqsadida ishlatilgan usuldir. Masalan, shoir o'zbekcha "qiziq" so'zini tojikcha g'azalga radif qilib oladi:

*Garchi dar sahni chaman sumbul-u rayhon qiziq ast,
Chehrai chun guli dildori man az on qiziq ast.*